

ILMIY USLUB VA UNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Sherdonaqulova Dilafruz,

TerDU magistranti

dilafruz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilmiy nutq, ilmiy uslub hamda ilmiy diskursning mohiyati va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Ilmiy nutqning aniqlik, mantiqiylik, izchillik va obyektivlik kabi asosiy xususiyatlari yoritilib, uning til tizimidagi o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ilmiy diskurs tushunchasi, uning kommunikativ jarayondagi ahamiyati va matn bilan bog'liq jihatlari izohlanadi. Ilmiy uslubning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, terminologiyaning roli hamda umumxalq tilidagi birliklarning ilmiy termin sifatida qo'llanishi misollar asosida tahlil qilinadi. Maqolada ilmiy nutq va diskursni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilib, ilmiy matnning tuzilishi va mazmuniy xususiyatlariga ha e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy nutq, ilmiy uslub, lingvistik xususiyatlari, terminologiya, leksika, sintaksis, morfologiya, mantiqiylik, aniqlik, obyektivlik, ilmiy matn, kommunikativ jarayon.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность научной речи, научного метода и научного дискурса, а также их взаимосвязь. Выделены основные характеристики научной речи, такие как точность, логика, последовательность и объективность, и указано её место в языковой системе. Также объяснено понятие научного дискурса, его важность в коммуникативном процессе и аспекты, связанные с текстом. На примерах анализируются лексические, морфологические и синтаксические особенности научного стиля, роль терминологии и использование единиц в национальном языке в качестве научных терминов. В статье освещаются теоретические и практические аспекты формирования научной речи и дискурса, а также уделяется внимание структурным и содержательным особенностям научного текста.

Ключевые слова: Научная речь, научный дискурс, научный метод, лингвистические особенности, терминология, лексика, синтаксис, морфология, логика, точность, объективность, научный текст, коммуникативный процесс.

Abstract. This article analyzes the essence of scientific speech, scientific method and scientific discourse and their interrelationships. The main features of scientific speech, such as accuracy, logic, consistency and objectivity, are highlighted, and its place in the language system is indicated. Also, the concept of scientific discourse, its importance in the communicative process and aspects related to the text are explained. The lexical, morphological and syntactic features of the scientific style, the role of terminology and the use of units in the national language as scientific terms are analyzed based on examples. The article highlights the theoretical and practical aspects of the formation of scientific speech and discourse, and pays attention to the structure and content features of the scientific text.

Keywords: Scientific speech, scientific discourse, scientific method, linguistic features, terminology, lexis, syntax, morphology, logic, accuracy, objectivity, scientific text, communicative process.

Kirish. Ilmiy uslub tilning funksional uslublari tizimida alohida o'rin egallab, ilmiy bilimlarni yaratish, tizimlashtirish va uzatishga xizmat qiladi. Ushbu uslubning asosiy vazifasi obyektiv borliq hodisalarini ilmiy asosda tavsiflash, tushuntirish va umumlashtirishdan iboratdir. Ilmiy uslub har bir sohaning terminlari ko'proq ishlatilishi, grammatik qurilishida mantiqiy bog'liqlik, izchillik, aniqlik, bo'laklar to'laligi bilan farqlanadi.

Ilmiy uslub tabiiy fanlarda formulalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu formulalar ideomatik vazifa bajarib, fikr aniqligi, sodda ifoda uchun xizmat qiladi.

Ilmiy uslubda badiiy tasvir vositalari, tantanali leksika kabilardan, deyarli, foydalanilmaydi. Biroq ilmiy-ommabop asarlar ham mavjudki, bunda soʻzlovchi (yozuvchi) sof ilmiy bayondan chekinadi, oʻz fikr-mulohazalarini, ilmiy xulosalarining tushunarli boʻlishi uchun badiiy-publitsistik, shuningdek, soʻzlashuv uslubiga xos boʻlgan soʻz, ibora va gaplardan foydalanishga harakat qiladi. Ilmiy-ommabop asarlar bunga yorqin misol boʻla oladi.

Adabiyotlar tahlili. Oʻzbek tilshunosligida A.Hojiyev ilmiy uslubni funksional uslublar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning asosiy belgilarini aniqlik, mantiqiylik va obyektivlik bilan izohlaydi. Shuningdek, N.Mahmudov ilmiy nutqda bayonning izchilligi va dalillarga asoslanganligi yetakchi mezon ekanligini taʼkidlaydi.

Ilmiy matnning kommunikativ vazifasi ilmiy axborotni aniq, izchil va tushunarli shaklda yetkazishdan iborat. Bu jarayonda til vositalari orqali dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlar shakllantiriladi, bilimlar tizimlashtiriladi va uzatiladi. M.N.Kozhina fikriga koʻra, ilmiy uslubning asosiy funksiyasi – kognitiv (bilish) va kommunikativ vazifalarning uygʻunligidan iborat boʻlib, unda til ilmiy tafakkur vositasi sifatida namoyon boʻladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy va tahliliy usullardan foydalanildi. Ilmiy uslubning lingvistik xususiyatlarini aniqlashda ilmiy manbalar asosida nazariy tahlil olib borilib, leksik, morfologik va sintaktik birliklar misollar yordamida oʻrganildi. Shuningdek, ilmiy nutq va diskursning oʻzaro bogʻliqligi kontekstual yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Ilmiy diskurs tushunchasi ilmiy uslubni kengroq kommunikativ kontekstda talqin qilish imkonini beradi. Diskurs faqat matn bilan cheklanmay, balki nutq jarayoni, kommunikativ vaziyat, ishtirokchilar oʻrtasidagi munosabatlar hamda nutq strategiyalarini ham qamrab oladi. Teun A. van Dijk ilmiy diskursni ijtimoiy va kognitiv jarayonlar bilan bogʻliq murakkab tizim sifatida izohlaydi. Oʻzbek tilshunosligida ham diskurs va matn tushunchalarining farqlanishi qayd etilib, diskursning kommunikativ vaziyat bilan chambarchas bogʻliqligi taʼkidlanadi.

Ilmiy uslub boshqa funksional uslublardan oʻziga xos jihatlari bilan farqlanadi. V.V.Vinogradov ilmiy uslubning asosiy belgilaridan biri sifatida obyektivlik va mantiqiylikni koʻrsatadi. Badiiy uslubda obrazlilik, emotsionallik va ekspressivlik ustun boʻlsa, ilmiy uslubda bunday vositalar deyarli qoʻllanilmaydi. Aksincha, ilmiy nutq fakt va dalillarga asoslanadi hamda umumlashirish va isbotlashga qaratiladi.

Ilmiy uslubning lingvistik xususiyatlari leksik, grammatik va sintaktik darajalarda namoyon boʻladi. Leksik jihatdan ilmiy matn terminologik birliklarning keng qoʻllanilishi bilan xarakterlanadi. Ayrim holatlarda esa umumxalq tilida qoʻllanadigan bir qator soʻzlar ilmiy uslubda termin sifatida xizmat qilishi mumkin.

masalan, Signal: oddiy belgi ishora u fizikada: axborot uzatuvchi impuls, Ish: oddiy mehnat. Ilmiy kuch taʼsirida bajariladigan energiya oʻzgarishi, Zanjir: temir halqalardan iborat qatlam Fizikada, elektronika, ulangan elementlar tizimi kabilar.

E.Begmatov terminlarni ilmiy nutqning asosiy vositasi sifatida baholab, ular ilmiy tushunchalarni aniq va bir ma'noli ifodalashga xizmat qilishini qayd etadi. Shuningdek, D.N.Shmelev ham terminlarning ustunligini ilmiy uslubning muhim belgisi sifatida ko'rsatadi. Bu uslubda so'zlar asosan o'zining to'g'ri, denotativ ma'nosida qo'llanadi, ko'chma ma'nolar va obrazli ifodalar cheklangan bo'ladi.

Grammatik jihatdan ilmiy uslubda ot turkumi ustunlik qiladi, bu esa predmet va hodisalarni nomlashga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Fe'llarning majhul nisbat shakllari ("aniqlanadi", "tadqiq etiladi", "bayon qilinadi") keng qo'llanilib, obyektivlikni ta'minlaydi. I.R.Galperin ilmiy matnda shaxssiz konstruktsiyalarning ustunligini uning obyektivlikka intilishi bilan izohlaydi. Bundan tashqari, III shaxs shakllari faol qo'llanadi, I va II shaxs shakllari esa cheklangan bo'ladi.

Sintaktik jihatdan ilmiy matn murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda qo'shma gaplar va turli bog'lovchi vositalar keng qo'llanadi. "Birinchidan", "ikkinchidan", "demak", "shunday qilib", "xulosa qilib aytganda" kabi birliklar matn qismlari o'rtasida mantiqiy izchillikni ta'minlaydi. O. S. Akhmanova bunday birliklarni ilmiy nutqning strukturaviy yaxlitligini ta'minlovchi vositalar sifatida baholaydi. Shu bilan birga, R. Qo'ng'urov barqaror birliklarni tilning tayyor birliklari sifatida izohlab, ularning nutqda mantiqiy bog'lovchilik vazifasini bajarishini ta'kidlaydi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi.

Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obektivligiga xizmat qilishi lozim. Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqatbugina emas singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib,

asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi.

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Subektiv baho shakllari xos emas. –lar ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalama-da, atama xos qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi. Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas.

Ilmiy matnning muhim xususiyatlaridan yana biri qisqalik va ixchamlikdir. Fikrlar lo'nda, aniq va ortiqcha emotsional vositalarsiz ifodalanadi. Har bir jumla muayyan ilmiy mazmunni yetkazishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy matnda mantiqiy izchillik qat'iy saqlanadi, fikrlar ketma-ketlik asosida rivojlantiriladi va umumiy xulosaga olib keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ilmiy uslub o'zining aniqlik, obyektivlik, mantiqiy izchillik va terminologik boylik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbek va xorijiy tilshunoslarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, ilmiy uslub nafaqat til birliklarining o'ziga xos qo'llanishini, balki ilmiy tafakkur va kommunikatsiyaning muhim vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Galperin I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977.
4. Hojiyev A. O'zbek tilining stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – Москва: Просвещение, 1993.
6. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
7. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 1977. – 198 b.
8. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва: Наука, 1971.
9. Шмелев Д. Н. Современный русский язык. Лексика. – Москва: Просвещение, 1977.